

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TURSUNOV MUHRIDDIN EGAMQUL O‘G‘LI

**LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHA (QALIN QATLAMLI
REZISTOR) NING TERMOELEKTRIK XOSSALARIGA
DEFORMATSIYANING TA‘SIRI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences**

Tursunov Muhridin Egamqul O‘g‘li

Legirlangan silikat shisha (qalin qatlamli rezistor) ning termoelektrik
xossalari ga deformatsiyaning ta‘siri..... 3

Турсунов Мухриддин Эгамкулович

Влияние деформации на термоэлектрические свойства легированного
силикатного стекла (толсто пленочного резистора)..... 23

Tursunov Mukhriddin

The effect of deformation on the thermoelectric properties of doped silicate
glass (thick-film resistor)..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 51

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TURSUNOV MUHRIDDIN EGAMQUL O‘G‘LI

**LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHA (QALIN QATLAMLI
REZISTOR) NING TERMOELEKTRIK XOSSALARIGA
DEFORMATSIYANING TA‘SIRI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERAT**

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.inp.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduraxmanov Gulmurza

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mussayeva Malika Anvarovna

fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Tursunqulov Oybek Muydinovich

fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent

davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+99871) 289-31-41; faks: (+99871) 289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, YaFI. Tel.: (+99871) 289-31-19).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Yu.Tashmetov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

O.R.Tojiboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD., katta ilmiy xodim

S.B.Igamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. So‘nggi yillarda metall oksidlari bilan legirlangan silikat shishalarning elektrotransport va termoelektrik xossalari o‘rganish nafaqat fundamental fizika doirasida, balki amaliy texnologiyalar rivojida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Qalin qatlamli texnologiya asosida tayyorlanadigan bunday materiallar arzonligi, ekologik xavfsizligi, yuqori issiqlikka chidamliligi, barqaror elektrotransport xossalari hamda ishlab chiqarish jarayonining soddaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli turli xil metall oksidlari bilan legirlangan silikat shisha materiallari asosida termoelektrik generatorlar, tenzoresistiv elementlar, harorat va bosim datchiklari kabi qurilmalar yaratish jahon amaliyotida keng rivojlanmoqda. Shu bilan birga, legirlangan silikat shishalarda struktura elementlarining o‘zaro ta’siri, ularning zaryad tashuvchilarini boshqarish qobiliyati va tashqi omillarga sezgirligi ushbu materiallarni turli o‘lchash tizimlarida barqaror ishlaydigan funksional elementlar sifatida qo‘llash imkoniyatini ochib bermoqda. Bu esa mazkur materiallarga bo‘lgan ilmiy va amaliy qiziqishni yanada kuchaytirib, tadqiqotlar doirasining kengayishiga olib kelmoqda.

Jahon ilm-fanida oxirgi o‘n yillikda legirlangan silikat shishalarning energetik zonalari, kiritma holatlari, taqiqlangan zona kengligining deformatsiya ostida o‘zgarishi, tunnelli va perkolatsion o‘tkazuvchanlik mexanizmlari keng miqyosda o‘rganilmoqda. AQSh, Yaponiya, Xitoy, Kanada va Yevropa tadqiqotchilari bu materiallarning elektrofizik va termoelektrik xossalari izchil tahlil qilmoqda. Shunga qaramay, aynan ruteniy (RuO_2) va marganes (MnO_2) oksidlari bilan legirlangan silikat shishalarda deformatsiya ta’sirida termoEYuKning qanchalik kuchli o‘zgarishi, uning mikrostrukturaviy sabablari va energetik tirqishlar bilan bog‘liqligi hozirgacha to‘liq yoritilmagan. Shu bois bu yo‘nalishda fundamental tadqiqotlar olib borish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Respublikamizda ham metall oksidlari bilan legirlangan silikat shishalarning elektrofizik va termoelektrik xossalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar so‘nggi yillarda sezilarli rivojlanmoqda. Xususan, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti va boshqa ilmiy markazlarda ushbu materiallarda solishtirma qarshilikning haroratga bog‘liqligi, mikrostrukturaviy o‘zgarishlar, kontakt zonalaridagi termoEYuK generatsiyasi, shaffof o‘tkazgichli strukturalar, nanoklasterli metall oksid qatlamlari bo‘yicha fundamental izlanishlar olib borilmoqda. Mamlakat sanoatida import o‘rnini bosuvchi sezgir datchiklarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi, elektronika va avtomatlashtirilgan tizimlarning modernizatsiyasi, shuningdek, energiya tejoychi qurilmalar yaratish ushbu tadqiqot yo‘nalishining amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli “2030-yilgacha bo‘lgan ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 24-avgustdagi PQ-4426-sonli “Tarmoq korxonalarini o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va mahalliy lashtirishni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga

tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II-ustuvor yo'nalishi - «Energetika, energiya tejash va muqobil energiya manbalari»ga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Legirlangan silikat shishalarning elektro-fizik va termoelektrik xossalarini o'rganish bo'yicha dunyoning ko'plab olimlari shug'ullanib kelgan va hozir ham shug'ullanmoqda, jumladan, germaniyalik (Y.G. Magnus, K. Maurer, H. Schmidt, R. Müller, Joseph P. Heremans), britaniyalik (U. Thomson, A. Paul, J. Zarzycki), amerikalik (G.E. Pike, C.H. Seager, Z.H. Meiksin, G.C. Kuczynski, J. Shelby, R. Brow, M. Tomozawa, J. MacKenzie), yaponiyalik (T. Minami, M. Tatsumisago, Ken Kurosaki, Anek Charoenphakdee, Shinsuke Yamanaka), xitoylik (X. Guan, M. Wen, H. Li, J. Ou), italiyalik (C. Meneghini, S. Mobilio, F. Pivetti, I. Selmi, M. Prudenziati, B. Morten), fransiyalik (D. Nassau, P. Richet), rossiyalik (N.V. Morozova, V.V. Shchennikov, S.V. Ovsyannikov, A.S. Gusev, S.V. Zaitsev, V.V. Osipov), sloveniyalik (M. Hrovat, D. Belavič, Z. Samaržija, J. Holc), hind (D.P. Rai), belarus (V. Ksenovich), o'zbekistonlik (G. Abdurakhmanov, A. Dekhkonov, D. Toshmuhammedova, I. Nuritdinov, B. Umrzoqov, M. Mussayeva, A. O'roqov) va boshqa mutaxassislar.

Materiallarning elektr o'tkazuvchanligi va termoelektrik xossalariga deformatsiyaning ta'siri muammosi XIX asr o'rtalaridan boshlab o'rganilib kelinmoqda. So'nggi yillarda metall oksidlari bilan legirlangan silikat shishalarning elektr va termoelektrik xossalari yo'nalishida izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday materiillardagi deformatsiya jarayonlari nafaqat geometrik o'zgarishlar bilan, balki lokal tuzilmaning qayta tashkil topishi, zaryad tashuvchilarning diffuziyasi va energetik holatlarning shakllanishi bilan ham bog'liq. Dunyoning ko'plab tadqiqotchilari tomonidan legirlangan silikat shishalar asosida yuqori issiqlikka chidamli elektrodlar, qalin qatlamli rezistorlar, shaffof o'tkazgichlar, piezo va tenzorezistiv elementlar, gaz va bosim datchiklari uchun sezgir qatlamlar ishlab chiqilgan. Metall oksidlari bilan legirlangan silikat shishalarda elektronlarning energiya holatlari taqsimoti, kiritmalararo tunnelli o'tkazuvchanlik mexanizmlari, perkolatsiya chegaralari va Zeebek koeffitsientining fazoviy taqsimlanishi bo'yicha ko'plab ilmiy natijalar e'lon qilingan. Termoelektrik sezgirlikning harorat, struktura va deformatsiya bilan bog'liqligini izohlash uchun mikrostrukturaviy modellar ham taklif qilingan.

Shunga qaramay, legirlangan silikat shisha asosidagi qalin qatlamli rezistorlarda deformatsiyaning elektro'tkazuvchanlik va termoelektrik xossalarga kompleks ta'siri, xususan, Zeebek koeffitsientining fazoviy taqsimlanishi hamda elektr o'tkazuvchanlik va termoelektrik xossalarning energetik tirqishlar bilan bog'liqligi kabi masalalar to'liq yoritilmagan. Bundan tashqari, metall oksidlari silikat shishaga kiritma sifatida kiritilganda silikat shishada hosil bo'ladigan kiritma zonalari va psevdotirqishlarning hosil bo'lish mexanizmlari haqida yakdil tasavvurlar yo'q. Shuningdek ushbu materiillarda energetik holatlar zichligi hanuzgacha o'rganilmagan.

Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq Uzb-Ind-2021-78-raqamli "Metall oksidlari bilan legirlangan silikatlarining termoelektrik xossalari va o'z-o'zidan tashkil bo'lish jarayonlari" (2021-2023) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi legirlangan silikat shishaning elektr o'tkazuvchanligi va termoelektrik xossalariga bir o'qli elastik deformatsiya ta'sirining mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

zarur tarkibli legirlangan silikat shisha namunalarini tayyorlash, tarkibini nazorat qilish;

rentgen nurlari difraksiyasi (XRD) yordamida namunalar strukturasi va fazaviy tarkibini aniqlash;

elektr o'tkazuvchanlikka deformatsiyaning ta'sirini tajribada aniqlash;

Zeebek koeffitsientining deformatsiyaga bog'liqligini aniqlash;

termoEYuKning fazoviy taqsimlanishini aniqlash;

o'tkazuvchanlikdagi o'zgarishni energetik zonalar bilan bog'lash;

termoelektrik tenzodatchikning sezuvchanlik darajasini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida ruteniy (RuO_2) va marganes (MnO_2) oksidlari bilan legirlangan silikat shishalari olingan.

Tadqiqotning predmetini legirlangan silikat shishaning elektr o'tkazuvchanligi va termoelektrik xossalariga bir o'qli elastik deformatsiya ta'sirining mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: qalin qatlamli texnologiya, Rentgen nurlari difraksiyasi (XRD), energiya dispersiyasi spektrometri (EDS), uch nuqtali egilish, VAX o'lchovi, Zeebek koeffitsientini aniqlash usullari, CorelDraw 2018 va Kompas 3D v.17 dasturlari, Wolfram Mathematica v.13 va Origin 2018 dasturlari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ruteniy oksidi bilan legirlangan silikat shishaning taqiqlangan zonasida kiritma zonasi joylashishi va hosil bo'ladigan psevdotirqishda energetik holatlar zichligining taqsimlanishi, shuningdek, Fermi sathining valent zonasi tomon siljishi termoEYuK koeffitsienti qiymatini belgilovchi asosiy omillardan ekanligi aniqlangan;

legirlangan silikat shishada deformatsiyaning termoEYuK koeffitsientiga ta'siri elektr o'tkazuvchanlikka ta'siriga nisbatan katta (20-120 baravar) ekani, bu esa Mott nazariyasi asosida lokalizatsiyalangan holatlar zichligi taqsimotining o'zgarishi bilan izohlanishi ko'rsatilgan;

mikrokontakt spektroskopiyasi usuli orqali ruteniy va marganes oksidlari bilan legirlangan silikat shishalarda energetik holatlar zichligining taqsimoti aniqlanib, tadqiq qilingan namunalarda psevdotirqish hosil bo'lishi ko'rsatilgan;

legirlangan silikat shisha namunalarida termoEYuK asosan legirlangan silikat shisha va kumush o'tkazgich tutashgan joyda, ya'ni ikki xil o'tkazgich chegarasi (kontakt) yaqinida paydo bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qalin qatlamli texnologiya bo'yicha RuO₂ va MnO₂ bilan legirlangan silikat shishada termoEYuK ning o'zgarishiga asoslangan deformatsiyaga o'ta yuqori sezgir datchik (qarshilik o'zgarishiga nisbatan 20-120 barobar yuqori sezgirlikka ega) yaratish mumkinligi aniqlangan va bunday datchikning laboratoriya namunasi sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan ma'lumotlarning takroriy tajribalar bilan tasdiqlanishi, zamonaviy o'lchov uskunalari (XRD, EDS, raqamli multimetrlar, teplovizor va hakoza) yordamida yuqori aniqlikda qayd etilishi orqali ta'minlangan. Natijalar mavjud ilmiy tasavvurlarga zid emas va taklif etilgan fizik modelga mos keladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ilmiy ahamiyati shundaki, deformatsiya va harorat ta'sirida qalin qatlamli texnologiya asosida tayyorlangan legirlangan silikat shishalarning elektr va termoelektr xossalari tizimli ravishda o'rganildi. Olingan natijalar bunday materiallarning tashqi ta'sirlarga sezgirligini tushunish, ularning elektro-fizik xususiyatlarini maqsadli boshqarish va yangi avlod datchik elementlarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratadi.

Amaliy ahamiyati shundaki, taklif qilingan konstruktiv va texnologik yechimlar importni o'rnini bosuvchi, mahalliy datchiklar yaratish imkonini beradi, ular energetika, transport va sanoat avtomatlashtirishida amaliy qo'llanishga mo'ljallangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Legirlangan silikat shisha (qalin qatlamli rezistor) ning termoelektrik xossalari deformatsiya ta'siri bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

termoEYuK koeffitsientining qiymatini belgilovchi hamda termoEYuK ning ikki har xil o'tkazgichlar tutashgan joyda (kontaktda) paydo bo'lishi haqidagi ma'lumotlardan, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti fizika fakultetida bajarilgan IL-4821091628-raqamli "Fotovoltaikada qo'llanilish uchun shaffof o'tkazuvchan metall oksidlardagi nanostrukturali grafenli plyonkalarni shakllantirish va ulardagi zaryad tashuvchilarining ko'chish jarayonlari mexanizmlari" mavzusidagi O'zbekiston-Belarus qo'shma amaliy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 2025-yil 18-iyundagi № 01/11-7616-sonli xati). Ilmiy natijalardan foydalanish shaffof o'tkazuvchan metall oksidlardagi nanostrukturali grafenli plyonkalarda solishtirma qarshilikni o'lchash jarayonida qarshilikning deformatsiyaga bog'liq holda o'zgarishini hamda metal oksid qatlamlarida termoelektrik xususiyatlarini tushuntirish imkonini bergan;

termoEYuK ning deformatsiyaga juda yuqori sezgirligi aniqlangani, ruteniy va marganets oksidlari bilan legirlangan silikat shishalarda energetik holatlar zichligining taqsimoti hamda o'rganilgan namunalarda psevdotirgish paydo bo'lishi haqidagi ma'lumotlardan, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan AL-202102215-raqamli "Ferromagnit nanoklasterli Si bilan aylanma saraton hujayralarini tutib qoluvchi mikrosuyuqlik kanalli integrallangan tizim" mavzusidagi O'zbekiston - Turkiya qo'shma amaliy tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika universiteti 2025-

yil 8-sentyabrdagi № 01/9-14-2398-sonli xati). Ilmiy natijalardan foydalanish termoEYuK o'zgarishiga asoslangan, yuqori sezgirlikka ega yangi usuldagi termoelektr tenzodatchikning laboratoriya namunasidan foydalangan holda mikrokanallarda suyuqlik bosimini o'lchash hamda nanoklasterlarning magnit xossalarini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 5 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 125 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusi bo'yicha turli tadqiqotchilar tomonidan olingan natijalar tahlili keltirilgan, dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchligi asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish, ishning aprobatsiyasi natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Turli materiallarning elektr o'tkazuvchanligiga deformatsiyaning ta'siri. Tenzodatchik”** deb nomlangan bo'lib, u turli materiallarning - metallar, yarimo'tkazgichlar va qalin qatlamli rezistorlarning elektr o'tkazuvchanlik va termoelektr xossalariga bir o'qli elastik deformatsiya ta'sirining nazariy hamda eksperimental asoslarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Bobda deformatsiyaning elektr o'tkazuvchanlik va Zeebek koeffitsientiga ta'siri, materiallarning struktura-parametrlaridagi o'zgarishlar va energetik zonalardagi kiritmalar bilan bog'liqligi yoritilgan.

Shuningdek, termoelektr hodisalarga deformatsiyaning ta'siri bo'yicha olib borilgan fundamental tadqiqotlar, tajriba usullari va fizik modellar tahlil qilingan. Ayniqsa, bir o'qli elastik deformatsiya sharoitida elektr transport xossalarining sezgirlik darajasini oshiruvchi omillar, termoelektr kuchlanishning chiziqli bog'lanishi va struktura bilan o'zaro ta'siri ilmiy manbalar asosida umumlashtirilgan. Bu borada shisha asosidagi kompozitsion materiallarda diffuziya, lokal struktura buzilishlari va energetik kiritmalar asosiy rol o'ynashi ko'rsatilgan.

Bob yakunida, legirlangan silikat shisha materiallari uchun deformatsiya ostidagi elektr va termoelektr xossalarning kompleks tahlili yetarlicha o'rganilmaganligi asosida, dissertatsiyaning maqsadi va ilmiy-tadqiqot vazifalari shakllantirilgan.


Dissertatsiyaning **“Legirlangan silikat shisha asosidagi namunalarni tayyorlash texnologiyasi va tadqiqot usullari”** nomli ikkinchi bobi legirlangan silikat shisha asosidagi namunalarni tayyorlash, ularning fizik xossalarini o‘rganish va o‘lchash uchun ishlatilgan eksperimental qurilmalar va metodlarga bag‘ishlangan. Bobda sintez qilingan namunalarning struktura, morfologiya, elektr va termoelektrik parametrlarini aniqlashda qo‘llanilgan texnologik yechimlar yoritilgan.

Tadqiqot uchun tanlangan RuO_2 va MnO_2 oksidlari bilan legirlangan silikat shisha namunalar qalin qatlamli texnologiya asosida tayyorlangan. Ularning fazaviy tarkibi XRD, morfologiyasi esa energiya dispersion spektrometrli skanerlovchi elektron mikroskop yordamida o‘rganilgan. Elektr o‘tkazuvchanlik va termoelektrik xossalarining deformatsiyaga bog‘liqligini aniqlash uchun maxsus uch nuqtali egilish qurilmasi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Legirlangan silikat shishada kiritma zonalari, energetik tirqishlar va elektr o‘tkazuvchanligi”** deb nomlangan bo‘lib, legirlangan silikat shishalarda elektr o‘tkazuvchanlik va termoelektrik xossalariga deformatsiyaning ta‘sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bobda qattiq jismlarda elektr transport hodisalari, xususan deformatsiya ostida elektr o‘tkazuvchanlik va termoEYuK ning o‘zgarish mexanizmlari Kroning-Penni modeli va Mott mexanizmi asosida nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, legirlovchi elementlar kiritilishi natijasida silikat shisha strukturasida yuzaga keladigan kiritma zonalari, faza o‘zgarishlari va holatlar zichligining elektr o‘tkazuvchanlikka ta‘siri eksperimental va nazariy asosda izohlangan. Shuningdek, termoEYuKning material yuzasi bo‘yicha fazoviy taqsimoti maxsus o‘lchov tizimi yordamida aniqlangan.

Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi turli kristall moddalarning tarkibiga tayanib tuzilishi va xossalarini, ularga mexanik ta‘sirning natijalarini hisoblash imkonini beradi (WIEN2k, Quantum Espresso kabi dasturlar). Bunda kristall moddalarda bir necha atomlardan iborat elementar yacheykani ajratish juda muhim rol o‘ynaydi, hisoblash jarayonini oqilona vaqt davomida bajarish imkonini beradi. Ammo shishasimon materiallarda elementar yacheykani ajratish imkoni yo‘qligi vaziyatni keskin murakkablashtiradi (modellashtirish imkonini yo‘q qiladi). Shuning uchun shishasimon materiallar xossalarining deformatsiya ta‘sirida o‘zgarishini modellashtirishda soddaroq tasavvurlardan foydalanishga majburmiz. Shunday tasavvurlarning eng soddasi Kroning-Penni modeli.

Bu modelda atomlarning fazoda davriy joylashuvi energetik zonalar hosil qiladi, deformatsiya esa atomlararo masofani o‘zgartirib, taqiqlangan zonaning kengligiga ta‘sir qiladi. Agar taqiqlangan zonada kiritmalar sathlari yoki zonasi bo‘lsa, deformatsiya ta‘sirida uning asosiy zonalarga nisbatan joylashuvi va kengligi, ya‘ni bu zonadagi holatlar zichligi hamda uning energiya boylab taqsimlanishi o‘zgaradi. Bu tahlillarni amalga oshirish uchun “Wolfram Matematika v.13” dasturiy ta‘minotidan foydalanildi. Dastur yordamida taqiqlangan zona kengligi nisbiy o‘zgarishi ΔE ning deformatsiya nisbiy o‘zgarishi $\Delta \varepsilon$ ga bog‘liqligi grafigi qurildi (1-rasm). Bunda panjara doimiysi 0.500 nm dan 0.499 nm gacha (siqilish, nisbiy deformatsiya $\varepsilon = -2 \cdot 10^{-3}$) va 0.500 nm dan 0.501 nm gacha (cho‘zilish, $\varepsilon = 2 \cdot 10^{-3}$) o‘zgarganda taqiqlangan zona (0.050 eV) qanday o‘zgarishi hisoblandi va grafigi chizildi.





1-rasm. Kroning Penni modelida taqiqlangan zona kengligi nisbiy o‘zgarishining deformatsiya nisbiy o‘zgarishiga bog‘liqligi

1-rasmdan tor deformatsiya diapozonida (0-0,002) taqiqlangan zonaning o‘zgarishi chiziqli ko‘rinishga ega ekanligi aniqlandi. Taqiqlangan zona kengligining deformatsiya ta’sirida o‘zgarishi (1-rasm) shu zonaning ichidagi kiritma zonasining joylashuviga va kiritma zonasi bilan shishaning valent zonasi orasidagi psevdotirqishning kengligiga (3-rasm) ham mos ravishda ta’sir qiladi. Natijada psevdotirqishda energetik holatlar zichligi o‘zgaradi - namuna cho‘zilganda holatlar zichligi kamayadi, va aksincha. Elektronlar holatlari zichligi $N(E)$ qattiq jismlarning barcha elektr xossalari (elektr o‘tkazuvchanligi, fotoo‘tkazuvchanligi, termoEYuK koeffitsiyenti, va hokazo) belgilovchi omillardan biri. Ko‘pgina yarimo‘tkazgichlarda $N(E)$ yaxshi o‘rganilgan, ammo legirlangan silikat shisha (LSSh) da holatlar zichligi haqida ma’lumot uchramadi. Faqatgina Jacoboni va Rizzi $g(E)$ ni

$$g(\mathcal{E}) = \frac{1}{2\pi^2} \left(\frac{2m^*}{\hbar^2} \right)^{\frac{3}{2}} \sqrt{\mathcal{E}} \quad (1)$$


shaklida, LSSh ning elektr o‘tkazuvchanligini nazariy hisoblash uchungina ishlatishdi.

LSSh elektr xossalari bo‘yicha na dielektrik (yarimo‘tkazgich)larga, na metallarga o‘xshamaydigan unikal material (2-rasm). Past temperaturalarda (I hudud) LSSh ning solishtirma qarshiligi $\rho(T) \sim \exp(T_0/T)^\gamma$, $\gamma = 0.4-0.8$ (asosan $\gamma = 0.5$); xona temperaturasi atrofida minimum paydo bo‘ladi, keyin “metallsimon” ($\rho \sim T^\zeta$, $\zeta = 1-2$) o‘tkazuvchanlik kuzatiladi (II hudud). Juda yuqori temperaturalarda ($T > 700$ K) esa ρ keskin oshadi (5-6 martagacha) va maksimumga chiqadi (III hudud), keyin xuddi yarimo‘tkazgichlardagiday aktivatsiya qonuni bo‘ylab kamayadi (aktivatsiya energiyasi $E_\sigma = 0.5-1.5$ eV shishaning tarkibiga qarab).




2-rasm. LSSh da solishtirma qarshilik ρ va termoEYuK koeffitsienti S ga temperaturaning ta'siri: (a) - shartli ravishda geliy temperaturasidan 1100 K gacha; (b) - tajribada 300 K dan 1100 K gacha. I, II va II - mos ravishda past, o'rta va yuqori temperatura hududlari

2-rasmdagi II hududda $\rho(T)$ ning minimumi paydo bo'lishi elektron-fonon bog'lanishi ta'sirida kiritma zonasi shishaning valent zonasi bilan birlashuvi oqibati ekanligi asoslangan edi. Kiritma zonasini temperatura bo'ylab $(2-5) \cdot 10^{-4}$ eV/K tezlik bilan siljiydi. Shunga ko'ra $T = 0$ K da kiritma zonasi shishaning valent zonasi shiftidan $E_g \approx 300 \cdot (2-5) \cdot 10^{-4} = 0.06-0.15$ eV masofada joylashgan (3a-rasm). Temperatura oshishi bilan shishaning taqiqlangan zonasi elektron-fonon bog'lanishi tufayli toraya boradi, ammo bu torayish (0.06-0.15 eV) taqiqlangan zona kengligiga (3.3 eV) nisbatan sezilarli bo'lmaydi. Kiritma zonasining siljishi esa bu zonaning xona temperaturasi atrofida valent zonasi bilan qo'shilishiga olib keladi (3b - rasm), oqibat LSSh da "metall" o'tkazuvchanligi paydo bo'ladi, chunki endi kovaklar konsentratsiyasi o'zgarmaydi, elektr o'tkazuvchanligining temperatura bo'ylab o'zgarishi faqat kovaklarning sochilishi tufayli bo'ladi.




3-rasm. RuO₂ bilan LSSh da holatlar zichligining turli temperaturalarda (T , K) taqsimlanishi: (a) – 0; (b) – 300; (c) - 1000

Temperatura yanada ko‘tarilsa, 700 K atrofida silikatlarga xos struktura o‘tishlari yuz bera boshlaydi, atomlar orasidagi masofa oshib, kovaklarning to‘lqin funksiyalarining ustma-ustligi kamayadi va kiritma zonasi shishaning valent zonasidan ajralib, taqiqlangan zona o‘rtasiga tomon siljiydi. 1000 K atrofida silikatlarda struktura o‘tishlari yakunlanadi, kiritma zonasi endi siljimaydi (3c - rasimga qarang), natijada yarimo‘tkazgichlarga xos aktivatsiya o‘tkazuvchanligi paydo bo‘ladi. Bunda E_g ning qiymati LSSh ning tarkibiga qarab 1.5 eV gacha boradi va unda holatlar zichligi hisobga olmas darajada kamayadi, ya’ni psevdotirqish haqiqiy tirqishga aylanadi. 4-rasmda tasvirlangan legirlangan silikat shishada holatlar zichligining taqsimlanishi silikat shishaning optik xossalariga va Ru hamda Mn ning umumiy xossalariga tayanib taxmin qilingan edi.



4-rasm. RuO₂ va MnO₂ bilan legirlangan B34E silikat shishada holatlar zichligi (model)

Bu taxminni tajribada tasdiqlash uchun legirangan silikat shishada holatlar zichligini o'lchashning eng qulay usuli sifatida mikrokontakt spektroskopiyasi tanlandi. Ma'lum-ki, VAX ning birinchi hosilasi dI/dV mikrokontaktning elektr o'tkazuvchanligi Y ni beradi, ikkinchi hosilasi d^2I/dV^2 esa namunadagi holatlar zichligi $g(\mathcal{E})$ ga proporsional bo'ladi. Shunga ko'ra tajribada olingan $I(V)$ jadvalidagi sonlarga Wolfram Mathematica 11 dasturida ishlov berib, Y va $g(\mathcal{E})$ hisoblandi, bu kattaliklarning grafiklari chizildi (5-rasm).




5-rasm. RuO_2 va MnO_2 bilan legirangan silikat shishaning a) past kuchlanishdagi volt-ampere xarakteristikasi (VAX); b) elektr o'tkazuvchanligi (VAX ning hosilasi); c) elektronlar holatlari zichligi (VAXning ikkinchi tartibli hosilasi)

4 va 5c-rasmlarni taqqoslashdan ularning o'xshashliklarini va farqini ko'rish mumkin. Jumladan, nazariy jihatdan RuO_2 hosil qilgan energetik sathlar shishaning valent zonasiga deyarli qo'shib turishi, MnO_2 zonasida esa undan ancha katta energiya tirqish bilan ajralishi lozim edi, tajribada bu sathlarning joylashuvi modelga mos keladi.

LSSH namunasini tayyorlash jarayonida pishirish davrida yuzaga keladigan fizik va kimyoviy jarayonlar, shuningdek silikatlarining tuzilmaviy o'zgarishlari mavjud maqolalarda yetarlicha o'rganilmagan. Xususan, LSSHni tayyorlashda kirishma miqdorining o'zgarishi, materialning ba'zi xususiyatlari, masalan, qarshilik (ρ) va Zeebek koeffitsiyenti (S) kabi xususiyatlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bu jarayonlarni batafsil o'rganish, LSSHning elektr o'tkazuvchanligini haroratga bog'liq ravishda o'zgarishini to'g'ri tushunish uchun juda muhimdir.

LSSh tarkibidagi birikmalarning yuqori haroratlarda yuzaga keladigan tuzilmaviy o'zgarishlari qarshilik (ρ) ni o'zgartiradi. Biz RuO₂ bilan legirlangan B34E silikat shishasida $T = 390-1040$ K oralig'ida $R(T)$ ning tegishli o'zgarishlarini kuzatdik (6-rasm).




6-rasm. RuO₂ bilan legirlangan B34E shisha namunalarida qarshilikning temperatura bo'ylab o'zgarishi. Bunda RuO₂ ning konsentratsiyasi (massa %): a) 15, b) 20 va c) 30

Konsentratsiya ortgan sari o'tkazuvchi faza zarrachalari orasidagi masofa qisqaradi, bu esa zaryad tashuvchilarni bir zarrachadan boshqasiga o'tishini osonlashtiradi. Natijada, yuqori konsentratsiyalarda qarshilikning kamayishi kuzatiladi, past konsentratsiyalarda esa qarshilik yuqoriligicha qoladi.

Shuningdek, 6-rasmdan ko'rinib turibdiki, ma'lum bir harorat diapazonlarida (300-750K) qarshilik temperaturaga chiziqli bog'langan (juft korrelyatsiya koeffitsienti $R^2 > 0,99$).

Termoelektrik hodisalarning zamonaviy fizikadagi hal etilmagan muammolardan biri bu - termoelektrik yurutuvchi kuch (termoEYuK) $\Delta\varphi$ ning qayerda hosil

bo'lishidir. Keng tarqalgan qarashga ko'ra, termoEYUK (Seebeck effekti) $\Delta\varphi$ bir jinsli o'tkazgich hajmida harorat farqi (gradient) ΔT ta'sirida hosil bo'ladi: $\Delta\varphi = S \cdot \Delta T$. Biroq, ayrim tadqiqotchilar bunga zid fikr bildirishgan. Ushbu muammoni aniqlashtirish maqsadida, mazkur tadqiqotda termoEYUKning LSSh namunasi bo'ylab taqsimlanishini o'lchadik. Natijalar 7-rasmda keltirilgan.




7-rasm. TermoEYuK ning namuna bo'ylab taqsimlanishi. a) B34E+RuO₂ (20 %, 30 %), b) B17+RuO₂ (15 %, 30 %) va c) PC5-1+RuO₂ (15 %, 20 %)

7-rasmdan quyidagi xulosalarga keldik: 1) LSShning termoEYuK koeffitsienti metall qatlammikidan ancha yuqori ekan; 2) RuO₂ miqdori ortishi bilan termoEYuK koeffitsienti kamayadi; 3) LSShning tarkibi bilan termoEYuK koeffitsienti o'rtasida aniq bog'lanish yo'q; 4) barcha namunalarda termoelementi bilan metall kontakt chegarasida termoEYuK maksimal qiymatga ega, ya'ni aynan shu chegarada termoEYuK paydo bo'ladi. Hosil bo'ladigan termoEYuK qiymati bir nechta asosiy omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida materiallar orasidagi elektron tuzilma farqi, harorat gradienti (dT/dx), fazoviy chegaralarning molekulyar va kimyoviy tuzilishi, hamda aralashmadagi komponentlar nisbati alohida rol o'ynaydi. Ayniqsa, ruteniy oksidi (RuO₂) miqdori 20 % atrofida bo'lgan namunalarda eng yuqori termoelektrik samaradorlikni namoyon etdi. TermoEYuK ning tajribada aniqlangan taqsimoti

termoelektrik datchiklar yoki termoelektrik mikro generatorlar yaratishda muhim omil bo‘ladi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Legirlangan silikat shisha (qalin qatlamli rezistor) ning termoelektrik xossalriga deformatsiyaning ta’siri. Termoelektrik tenzodatchik”** deb nomlangan bo‘lib, bunda RuO₂ oksidi bilan LSSh namunalarda qarshilik va termoEYuKning bir o‘qli elastik deformatsiya tasirida o‘zgarish qonuniyatlari va ushbu namunalardan tenzodatchik sifatida foydalanish imkoniyatlariga bag‘ishlangan.

LSSh asosidagi namunalarning elektr o‘tkazuvchanligi va bu namunalarda omik kontakt hosil bo‘layotganligini tadqiq qilish uchun ushbu namunalarning volt-ampere xarakteristikasi(VAX) o‘rganildi. Tadqiqot natijalari 8-rasmda keltirilgan.



8-rasm. LSSh namunalarining VAX si. a) B17M+RuO₂ (15, 20 va 30%), b) B34E+RuO₂ (15, 20 va 30%) va c) PC5-1+RuO₂ (15, 20 va 30%)

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, barcha namunalarning VAX grafigi to‘g‘ri chiziqli bo‘lib, ular ideal omik xususiyatga ega ekanligi kuzatildi. Eksperimental natijalarning chiziqliligi, ushbu namunalarni datchik sifatida qo‘llash imkoniyatlarini oshiradi.

Bir o'qli deformatsiyaning materialning elektr o'tkazuvchanligiga yoki deformatsiyaga sezgir bo'lgan boshqa xususiyatlariga ta'siri fan, texnika va tibbiyot sohalarida qo'llanilishi jihatidan juda muhimdir. Shu sababli, bir o'qli deformatsiyaning elektr va termoelektrik xossalarga ta'sirini o'rganish fundamental fan uchun ham, amaliy qo'llanmalar uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda biz ruteniy oksidi bilan LSShning elektr o'tkazuvchanligi va termoEYuK xossalariining bir o'qli deformatsiya ta'sirida qanday o'zgarishini o'rgandik. Tadqiqot uchun maxsus LSSh namunasi tayyorlandi (1-jadval).

1-jadval

Legirlangan silikat shisha namunalarining tarkibi (mass. %)

Namu nalar	Shisha tarkibi								T_f/τ_f K/h	Ligatura (RuO ₂)
	SiO ₂	PbO	Al ₂ O ₃	BaO	CuO	MnO ₂	B ₂ O ₃	MgO		
B17	33	67							1773/1	30
B34E	27	67		4				2	1673/1	20
PC5-1	11	61.9	0.7		1.4	10	15		1623/1	30


1 - jadvalda keltirilgan shisha tarkiblari uchun qarshilik va termoEYuK ning deformatsiyaga bog'liqligining o'lchash natijalari 8-rasmda ko'rsatilgan.

Ushbu grafiklardan quyidagi xulosalar chiqarildi:


1. $R(\varepsilon)$ va $U_i(\varepsilon)$ bog'liqliklari yuqori aniqlik bilan chiziqli xarakterga ega.
2. GF_{UT} qiymati GF_R ga nisbatan 20-120 baravar katta.
3. RuO₂ ligatura miqdori kamaygani sayin GF_{UT} oshadi, ammo GF_R esa aksincha, kamayadi.
4. Boshlang'ich termoEYuK (U_{T0}) GF_{UT} bilan bog'liq emas, biroq boshlang'ich qarshilik (R_0) GF_R bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq.
5. Shisha tarkibi GF_{UT} qiymatiga katta ta'sir ko'rsatadi (2-jadval), lekin bu bog'liqlikni aniq tushunish uchun qo'shimcha tadqiqotlar zarur.
6. TermoEYuK mexanik deformatsiyani aniqlashda qarshilikka qaraganda o'nlab baravar sezgirroq. Shu sababli, uni tenzodatchik sifatida ishlatish mumkin va bu parametr aniqroq ma'lumot olish imkonini beradi.

2-jadvalda esa qarshilik va termoEYuK ning boshlang'ich qiymatlari, qarshilikning deformatsiyaga bog'liqligi $R(\varepsilon)$ va termoEYuK ning deformatsiyaga bog'liqligi $U_i(\varepsilon)$ asosida hisoblangan tenzo sezgirlik qiymatlari hamda GF_R va GF_{UT} ning nisbatlari keltirilgan. Bu jadvaldagi GF_R va GF_{UT} ning qiymatlari quyidagi formula yordamida hisoblangan:


$$GF_R = \frac{\Delta R/R_0}{\varepsilon}, \quad GF_{UT} = \frac{\Delta U_T/U_{T0}}{\varepsilon} \quad (2)$$



a)



b)



c)

9-rasm. RuO₂ bilan LSSh namunalarda $R(\epsilon)$ va $U_t(\epsilon)$ grafigi. Bunda a) B17+RuO₂ (30%), b) B34E+RuO₂(20%) va c) PC5-1+RuO₂(30%)


Namunalarning boshlang'ich qarshiligi R_0 , boshlang'ich termoEYuK U_{T0} , termoEYuK koeffitsienti S , qarshilik va termoEYuK boyicha tenzosezgirlik GF_R va GF_{UT} , ularning nisbati GF_{UT}/GF_R

Namunalar	R_0, OM	$U_{T0}, \mu\text{V}$	$S, \mu\text{V/K}$	GF_R	GF_{UT}	GF_{UT}/GF_R
B17	1199	306	9.3	29	1673	58
B34E	3646	217.1	6.6	31	661	21
PC5-1	166.6	1.184	0.036	7.9	973	123

Bizning tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, namunalarda ligatura zarrachalari bir-biri bilan bevosita tutashmagan. Bu xulosa energiya dispersion spektrometr yordamida o'tkazilgan tahlillar asosida chiqarilgan. B34E shisha namunasida asosiy elementlarning yuzadagi taqsimoti 10-rasmda ko'rsatilgan.


Bundan tashqari, mazkur namunaga tegishli to'liq energiya dispersion spektr (element tarkibi) 11-rasmda berilgan. Natijalarga ko'ra, energiya dispersion spektrometr yordamida aniqlangan legirlangan shisha tarkibi B34E shisha kompozitsiyaning 1-jadvaldagi dastlabki tarkibi bilan to'liq mos keladi.

10 va 11-rasmlar natijalari ushbu tadqiqotda ilgari surilgan gipotezani tasdiqlaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, boshqariladigan deformatsiya natijasida materialning mikrotuzilmasi o'zgarib, RuO_2 bilan legirlangan silikat shishaning qarshilik va termoEYuK qiymatlariga ta'sir qiladi. Bu o'zgarish fazaviy modifikatsiya jarayonlariga o'xshash mexanizmlar orqali sodir bo'lishi mumkin. 10-rasmdagi tahlil natijalari shuni tasdiqlaydi: RuO_2 zarrachalari shisha matritsada bir xil taqsimlangan bo'lib, ular o'zaro bevosita tutashmagan. Bu esa LSShlarda elektr o'tkazuvchanlik faqat o'tkazuvchi zarrachalar orasidagi bevosita kontakt orqali emas, balki boshqa mexanizmlar bilan amalga oshishini ko'rsatadi. Elektr o'tkazuvchanlik asosan silikat nanokristallari bo'ylab zaryad tashuvchilarning sakrashi hamda pishirish jarayonida hosil bo'lgan kiritma zonasi orqali harakati (aktivatsion o'tkazuvchanlik) hisobiga yuzaga keladi.




10-rasm. B34E shisha namunasiga tegishli yuzaning skanerlovchi elektron mikroskopdagi tasviri (elementlar taqsimoti)

RuO₂ zarrachalari bir-biridan uzoqda joylashgan va o‘zaro bevosita tutashmagan. Bundan tashqari, RuO₂ zarrachalarining bir-biri bilan bevosita kontaktda emasligi deformatsiya ta’sirida qarshilik va termoEYuK ning o‘zgarishi zarrachalar orasidagi kontakt maydonining o‘zgarishi bilan bog‘liq emasligini anglatadi. Buning o‘rniga, o‘zgarishlar atomlar orasidagi bog‘lanish masofasi va bog‘lanish burchaklarining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi. Ya’ni, elektr o‘tkazuvchanlik asosan legirlangan shishadagi atomlarning o‘zaro ta’siri orqali tartibga solinadi.



11-rasm. B34E shisha namunasining to‘liq energiya dispersion spektri (elementlar tarkibi)

B34E shisha namunasining fazaviy tarkibini o‘rganish maqsadida rentgen difraksiyon tahlil (XRD) usuli qo‘llanildi. Tadqiqotda 15 mass % miqdorda ruteniy dioksid (RuO₂) qo‘shilgan B34E shisha kukunida XRD tahlili o‘tkazildi. O‘lchovlar 2θ burchaklar oralig‘ida 10° dan 80° gacha CuK α nurlanishi (λ = 1.5406 Å) ostida amalga oshirildi (12-rasm).



12-rasm. B34E shisha namunasining XRD natijalari

B34E shisha namunasining XRD spektrida yangi aniq diffraksiyon cho‘qqilar paydo bo‘ldi. Bu cho‘qqilar ruteniy dioksidning tetragonal kristall strukturasi mos

keluvchi PDF karta (No. 88-0322) bilan to'liq moslashadi. Natijada, XRD tahlili namunada RuO_2 kristall fazasi hosil bo'lganini yaqqol ko'rsatdi. Bu holat shuni anglatadiki, RuO_2 ni shisha matritsaga qo'shish natijasida amorf struktura saqlanib qolgan bo'lsa-da, uning fonida aniq kristall zarrachalar - nanokristallar shakllangan. Bu esa olingan materialning fizik-kimyoviy xossalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Legirlangan silikat shishada qarshilik va termoEYuK ning tenzo sezgirligi oddiy kontakt mexanizmi bilan bog'liq emasligini RuO_2 miqdori kamayganda GF_{UT} ning oshishi ham tasdiqlaydi. Biroq, ushbu tadqiqotda o'rganilgan kompozitsiyalar GF_{UT} ni maksimal qiymatga yetkazish uchun maxsus tanlanmagan. Bu shuni anglatadiki, legirlangan shishaning tarkibini takroriy tajribalar o'tkazish va eng maqbul kompozitsiyani tanlash orqali tenzo sezgirlikni yanada oshirish mumkin.

XULOSA

Ushbu dissertatsiyada ruteniy va marganes oksidlari bilan legirlangan silikat shishalarning energetik strukturalari, elektrotransport va termoelektrik xossalari tizimli ravishda nazariy va eksperimental asosda o'rganildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy yangiliklar va natijalar olindi:

1. Legirlangan silikat shishada termoEYuK koeffitsientining bir o'qli deformatsiya ta'sirida o'zgarishi elektr o'tkazuvchanlikning bir xil sharoitdagi o'zgarishlariga nisbatan o'nlab marta katta bo'lishi mumkinligi tajribada ilk bora isbotlandi va kiritma zonasi bilan shishaning valent zonasi orasida hosil bo'luvchi psevdotirqishda holatlar zichligining taqsimlanishi orqali tushuntirildi.
2. Mexanik deformatsiyaning legirlangan silikat shishada taqiqlangan zona kengligiga ta'siri Kroning-Penni modeliga tayangan holda asoslandi.
3. Legirlangan silikat shishada valent zonasi bilan kiritma zonasi orasida psevdotirqish hosil bo'lishi mikrokontakt spektroskopiyasi yordamida ilk bora aniqlandi.
4. Ilk bor, legirlangan silikat shisha namunalarida bir o'qli deformatsiyaning termoEYuK ga ta'siri (GF_{UT}) o'lchandi va uning xuddi shu namunalarda qarshilikka deformatsiyaning ta'siridan (GF_R) 20-120 baravar yuqori ekanligi aniqlandi.
5. Ilk bor, termoEYuK ga deformatsiyaning ta'siri asosida o'ta sezgir tenzodatchiklar yaratish mumkinligi isbotlandi va termoelektrik tenzodatchikka ixtiro sifatida patent olish uchun talabnoma topshirildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 ПО РИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА
ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

ТУРСУНОВ МУХРИДДИН ЭГАМКУЛОВИЧ

**ВЛИЯНИЕ ДЕФОРМАЦИИ НА ТЕРМОЭЛЕКТРИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА
ЛЕГИРОВАННОГО СИЛИКАТНОГО СТЕКЛА
(ТОЛСТОПЛЕНОЧНОГО РЕЗИСТОРА)**

01.04.07 – Физика конденсированного состояния

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистана за номером B2024.2.PhD/FM1115

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (inr.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: **Абдурахманов Гулмураза**
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Муссаева Малика Анваровна**
доктор физико-математических наук,
старший научный сотрудник
Турсункулов Ойбек Муйдинович
кандидат физико-математических наук,
старший научный сотрудник

Ведущая организация: **Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова**

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2025 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 при Институте ядерной физики (100124, г. Ташкент, пос. Улугбек, Институт ядерной физики; тел. (+99871) 289-31-41; e-mail: info@inr.uz).

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ядерной физики (регистрационный номер _____). (100124, г. Ташкент, поселок Улугбек, ИЯФ; тел. (+99871) 289-31-19).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 г.
(Реестр протокола рассылки № _____ от _____ 2025 г.)

М.Ю. Ташметов
председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

О.Р. Тожибоев
ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
PhD ф.-м.н., старший научный сотрудник

С.Б.Игамов
председатель научного семинара при Научном
совете по присуждению ученых степеней,
д.т.н., старший научный сотрудник

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последние годы изучение электро-транспортных и термоэлектрических свойств силикатных стекол, легированных оксидами металлов, приобретает особую значимость как для фундаментальной физики, так и для развития прикладных технологий. Материалы данного типа, изготавливаемые на основе толстоплёночной технологии, отличаются низкой себестоимостью, экологической безопасностью, высокой термостойкостью, стабильными электро-транспортными характеристиками и технологической простотой. В связи с этим в мировой практике активно развиваются устройства на основе силикатных стекол, легированных различными оксидами металлов, такие как термоэлектрические генераторы, тензорезистивные элементы, датчики температуры и давления. Кроме того, особенности взаимодействия структурных элементов в легированных силикатных стёклах, их способность управлять переносом носителей заряда и чувствительность к внешним воздействиям открывают широкие возможности для их применения в качестве функциональных элементов, стабильно работающих в различных измерительных системах. Все это усиливает научный и практический интерес к данным материалам и способствует дальнейшему расширению направлений исследований в данной области.

За последнее десятилетие в мировой науке активно ведутся исследования энергетических зон, легированных состояний, изменений ширины запрещённой зоны под воздействием деформации, а также туннельных и перколяционных механизмов проводимости в силикатных стёклах. Учёные США, Японии, Китая, Канады и Европы последовательно анализируют электрофизические и термоэлектрические свойства таких материалов. Однако степень изменения термоЭДС в силикатных стёклах, легированных RuO_2 и MnO_2 , под воздействием деформации, её микроструктурные причины, а также связь с энергетическими разрывами до настоящего времени изучены недостаточно полно. Поэтому проведение фундаментальных исследований в данном направлении является научно и практически актуальным.

В Республике Узбекистан в последние годы также активно развиваются научные исследования по изучению электрофизических и термоэлектрических свойств силикатных стекол, легированных оксидами металлов. В частности, в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова, Институте ядерной физики Академии наук и других научных центрах проводятся исследования температурной зависимости удельного сопротивления, микроструктурных изменений, генерации термоЭДС в контактных зонах, формирования прозрачных проводящих структур и нанокластерных слоёв оксидов металлов. Рост потребности в импортозамещающих чувствительных датчиках, модернизация электроники и автоматизированных систем, а также

создание энергосберегающих устройств в промышленности страны усиливают практическую значимость данного направления исследования.

Исследования в этой области соответствуют целям и задачам, предусмотренным в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 гг.» от 28 января 2022 года, № УП-6097 «Концепция развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-4426 «О расширении кооперационных связей между отраслевыми предприятиями и развитии локализации» от 24 августа 2019 года, а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики П. «Энергетика, энергосбережение и альтернативные источники энергии».

Степень изученности проблемы. Изучением электрофизических и термоэлектрических свойств легированных силикатных стекол занимались и занимаются многие учёные в мире, в том числе немецкие (Y.G. Magnus, K. Maurer, H. Schmidt, R. Müller, Joseph P. Heremans), британские (U. Thomson, A. Paul, J. Zarzycki), американские (G.E. Pike, C.H. Seager, Z.H. Meiksin, G.C. Kuczynski, J. Shelby, R. Brow, M. Tomozawa, J. MacKenzie), японские (T. Minami, M. Tatsumisago, Ken Kurosaki, Anek Charoenphakdee, Shinsuke Yamanaka), китайские (X. Guan, M. Wen, H. Li, J. Ou), итальянские (C. Meneghini, S. Mobilio, F. Pivetti, I. Selmi, M. Prudenziati, B. Morten), французские (D. Nassau, P. Richet), российские (N.V. Morozova, V.V. Shchennikov, S.V. Ovsyannikov, A.S. Gusev, S.V. Zaitsev, V.V. Osipov), словенские (M. Hrovat, D. Belavič, Z. Samaržija, J. Holc), индийские (D.P. Rai), белорусские (V. Ksenovich), узбекистанские (G. Abdurakhmanov, A. Dekhkonov, D. Toshmukhammedova, I. Nuritdinov, B. Umrzoqov, M. Mussayeva, A. O'roqov) и другие специалисты.

